

IPAKCHILIKNING KELIB CHIQISH TARIXI VA XALQ XO'JALIGIDA TUTGAN O'RNI

Qayumova Ismigul Rasuljon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti biologiya yo'nalishi 102-gruh talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ipakchilikning rivojlanishi, inson hayoti va xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Tut ipak qurtining rivojlanish bosqichlari haqida malumot keltirilgan.

Аннотация. В данной дипломной работе показано значение развития шелководства в жизни и жизнедеятельности человека, представлены сведения об этапах развития тутового шелкопряда.

Abstract. In this thesis, the significance of the development of sericulture in human life and people's livelihood. Information about the stages of development of the mulberry silkworm is presented.

Kalit so'zlar. Ipakchilik, gangiliy, imago, ipak bezlari, gomonom, kapalak, qurti, pilla, g'umbak.

Ключевые слова. Шелководство, кокон, имаго, шелконые железы, омоним, бобочка, червь, кокон, гриб.

Keywords. Sericulture, cocoon, imago, silk glands, homonym, cocoon, mushroom.

Ipakchilikning vatani Xitoy davlati hisoblanib, eramizdan 3 ming yil oldin Xitoy davlatining Shan-tun (hozirgi kunda Shandun deb ataladi) provinsiyasida (viloyatida) ipak qurti boqilgan. Shan-tun viloyati Xitoyning chetki provinsiyalaridan biri bo'lib, Sariq dengiz va Chjili ko'rfazining o'rtasidagi yarim orolda joylashgan. Undagi ob-havo ya'ni harorat va ozuqa beruvchi daraxtzorlarning ko'pligi sabab ipak qurtlarining rivojlanishiga qulay hisoblanadi. Pilla va ipak so'zlari ham Xitoy xalqi tomonidan birinchi marotaba nom berib atalgan. Yevropaliklar Xitoy davlati bilan savdo sotiq qilib, xitoyliklarni

serklar, vatani esa Serk davlati deb atashgan. Shundan kelib chiqib, ipakning lotincha nomi ham srk deb atalgan. Tarixiy manbalarda pill avval ipak to'g'risidagi ma'lumotlar afsonaviy xususiyatga ega ekanligi bayon etilgan. Xitoy tarixchisi Chu-Kingning ma'lumotlarida Xitoy davlati rahbari Shinam ipakchilikning rivojlantirish uchun katta xizmat ko'rsatgan. Xitoyliklar asta-sekin ipak qurtlarini boqib, ko'paytirib va o'rgana borib, ulardan pilla va pilladan ipak momig'ini olishga o'tganlar. Ipak momig'idan asta-sekin qimmatbaho matolar tayyorlagan. Xan imperatorligidan keyin ipak va ipakdan tayyorlangan matolar asta-sekin boy savdogarlar tomonidan dunyoning boshqa mamlakatlariga mahsulot sifatida chiqarilgan va savdo qilingan. Dunyo xalqlarining bunday qimmatbaho va nafis matoga bo'lgan talabi, yildan-yilga ortib borgan. Natijada, ipak mahsulotlari Xitoydan O'zbekistonga, O'rta Osiyoga, va nihoyat Rimgacha tarqala boshlagan va dunyoda ipak yo'lining paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan.

Tut ipak qurtining o'sish va rivojlanishi. Tut ipak qurti bo'g'im oyoqli hayvonlar tipiga, hasharotlar sinfiga, tangacha qanotlilar turkumiga, ipak qurtlilar oilasiga mansubdir. Chunki tanasining hamma o'simtalari -mo'ylovlari, oyoqlari, paypaslagichlari va boshqa qisimlari bo'lingan bo'g'imlari bir biri bilan elastic parda orqali tutashgan bo'ladi. Bu tipga kiruvchi hayvonlar uchun tanasini tashqi tasirdan himoya qilib turuvchi qattiq tashqi qoplarning bo'lishi xarakterlidir. Bo'g'im oyoqlilarning skeleti alihida moddadan **-xitindan** tuzilgan. Bo'g'im oyoqlilarning xitinli tashqi qoplami **kutikula** deb ataladi. Tut ipak qurti bo'g'im oyoqlilar tipining hasharotlar **Isecta** sinfiga, to'la rivojlanishi, qanotlarida tangachalarining bo'lishi bilan tangacha qanotlilar turkumiga, **Bombycidae** oilasiga kiradi. Tut ipak qurti bir yilda necha avlid berishiga qarab monovolitin (bir yilda bir avlod beradigan), bivoltin (bir yilda ikki avlod beradigan) va polivoltin (yiliga ikkitadan ortiq avlod beradigan) zotlarga bo'linadi. Asosan, mono va bivoltin zotlar sanoat ahamiyatiga ega. Monovolitin zotlari ko'roq ipak beradi, bular asosan bahorgi qurt boqish davrida boqiladi. Bivoltin zotlari yuqori temperaturaga chidamliligi bilan harakterlanadi, sanoatda qaytadan yozda va kuzda qurt boqish uchun gibridd urug'lar tayyorlashda komponentlardan biri sifatida

foydalaniladi. Tut ipak qurti quyidagi to'tta har xil rivojlanish bosqichiga ega . Bular tuxum (yoki urug'), lichinka yoki qurt ,g'umbak va jinsiy jihatdan yetilgan shakli - kapalakdir. Tut ipak qurtida qurtlik bosqichi oziqlanadigan bosqichi hisoblanadi. Tut ipak qurtining qolgan bosqichidagi hayot jarayonlari qurtning hayotiy jarayonlari qurtning organizimidagi to'plangan zahira oziq modda hisobga boradi.

Xulosa. qilib qytganda ipakcilik tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Uning ahamiyati yildan yilga ortib kelgan. hozirgi kunda ham ipakchilik mahsulotlariga bo'lgan talab yuqori. Tabiiy ipakdan xalq xo'jaligining turli sohalarida ,jumladan, aviatsiya, radio-texnika, kosmanavtika va boshqa sohalardagi keng ko'lamda foydalanilishi sababli ipakchilikning yanada rivojlantirishni davr taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yorqinoy Mirzayeva. Tut ipak qurti biologiyasi. Toshkent 2017.
2. O.Mavlonov, SH.Xurramov, X.Eshova. Umurtqasizlar zoologiyasi. Toshkent 2006.